



INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI

Abdullayeva Laziza Xusniddin qizi

SamDCHTI, Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi

2 bosqich 2334-guruh talabasi

+99850728-06-25

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chet tili o'qitish metodikasi haqida, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, o'rganishdagi bir qancha qiyinchiliklar, chet tili o'qitish metodikasida hozirda qo'llanilayotgan zamonaviy metod va usullari va ulardan samarali foydalanish xususida so'z boradi. Bugungi zamonaviy rivojlanayotgan davrda chet tillarini bilish ko'nikmasi professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri hisoblanadi. Turli sohalaridagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishda bo'lgan talab yuqoridir. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishda va o'qitishda zamonaviy usullari haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *xorijiy til, tilni o'rganishdagi muammolar, yechim, innovatsiya, kommunikatsiya, didaktika.*

Kirish

Bugungi kunda dunyoda gaplashiladigan tillarni soni 600ga yaqin. Ular bir-biridan rivojlangan va o'ziga xos oilaviy daraxtlarni tashkil eta oladi. Bular oilasida nemis tili oilasida mansub bo'lganlaridan biri bu ingliz tili. Hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri bu xorijiy tillarini ikkinchi til sifatida o'rgatish va shu orqali yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, sadoqat yuksak iftixor, milliy g'urur kabi umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir. Va shuningdek yurtimizda oxirgi 2-3 yil davomida yosh avlodlarni, asosan, ingliz tilini o'rganishga jalb qilish va ulardan B1 va C1 darajasidagi sertifikat va IELTS sertifikatlarini qo'lga kiritishlari talab qilinmoqda. "Nima uchun ingliz tilini o'rganishda qiyinchiliklar va muammolar kelib chiqyapti" ? Sababi hozirgi zumerlarning so'z boyligining yo'qligi, konsentratsiyaning pastligi, tartib intizomning yo'qligi, zerikish va nutq muammosi. Jumladan; Ingliz tilini o'rgatishda bir qancha muammolar quyidagilar:

- 1.Shovqin qilib o'qituvchini bezovta qiladi.
- 2.Sinf o'quvchilarini boshqarish qiyin .
- 3.Olomon talabalarini o'rganishga jalb qilish juda ham qiyin.
4. O'quv resurslarini barcha talabalarga uchun yetarli bo'lmaydi.

Muammolar va qiyinchiliklar bilan birga albatta bularga yechimlar ham yo'q emas. Quyidagi eng yaxshi yechimlardir:

- 1.Sinflarda o'quv musobaqalar

Ingliz tilini o'rganishda musobaqalar juda muhim ro'l o'ynaydi. Bu talabalarni ingliz tilini o'rganishga majbur qiladi . Masalan; debatlar, viktorinalar, va hako'zolar. 2.Ma'ruza davomida multimediyadan foydalanish.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Ko'pincha ingliz tilini o'qituvchilari o'qitishda eski va an'anaviy usullaridan foydalaniladilar. Ammo ta'lim maqsadlaridan maxsus ishlab chiqilgan yangi qurilmalar va gadjetlar ingliz tilini o'qitishda va o'rganishni yaxshilash mumkin. Chunki o'quvchilar kitoblarda yozilgan o'rniga ko'rgazmali tasvirlari, videolar, tovushlar va hakoza.

3.O'yinlar orqali o'rgatish

O'yinlar o'quvchilarni ko'proq jalb qiladigan faoliyat turidir. O'yinlar ta'lim va o'rganishda juda muhim ro'l o'ynaydi. Har xil turdagi jummalarda yetishmayotgan so'zni joylashtirish o'yini mavjud. Bu so'z boyligini juda ko'p shakllantiradi. Talabalar so'zni turlarini va ularning ma'nosini va gapda joylashishini tushunadi.

4.Dars va vaqt jadvali qoidalarini boshqarish

Ingliz tilini o'rganishda qoidalar va intizom juda katta ro'l o'ynaydi. Talabalar telefonlarini o'chirib qo'yishlari, o'rtoqlar bilan gaplashmasliklari, darsga o'z vaqtida kelishi uy vazifalarini bajarishi va topshirishlari kerak. Agar talabalar undagi qoidalarini buzsa, unga jarima solinishi kerak yoki ota-onalariga murojaat qilinishi kerak.

Metodikaning predmeti – chet tili predmeti orqali ta'lim tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o'rgatish ilmi, Muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodikani predmeti hisoblanadi. Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Didaktika – o'qitish mazmuni. Metodika ta'lim usullari metodlari deyiladi. Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o'qitish metodikasi turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L. V. Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday fani o'rganish tarixi o'qitish metodikasi fan bo'lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi. Chet til o'qitish metodikasida “Kommunikativ didaktika” metodi ham ahamiyatga molik sanaladi. Kommunikativ didaktika quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi;

- Ochiq va moslanuvchan dars konsepsiyasi
- Mavzu va mazmun muhim
- Darsdagi asosiy ish shakli suhbatlashish va guruh bo'lib ishlash
- O'quvchilarni faollashtirish va tildan ijodiy va erkin foydalanishga e'tibor katta bo'lish zarur
- Tushunishga fikrni izhor qilishga prinsipi asosida mashqqa kuchli e'tibor berish
- Ma'noni ochishda, harakat ko'lamini belgilashda va mashqda tashkil qilishda vizualitsiya [ko'rish tayanchi] muhim ro'l o'ynaydi.
- Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatni o'rganish
- Tildan og'zaki foydalanish va shu bilan birga asliy matnlarni tushunish muhim sanaladi.

Kommunikativ didaktika metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi.

Xulosa



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Asosiy muammolar sifatida o'qituvchilarni darsga jalb qilish qiyinchiliklari, resurslarining yetarli emasligi va tartib-intizomga sustligi ta'kidlangan .Ushbu muammolarga qarshi yechim sifatida o'quv munosbaqalari , multimediyadan foydalanish , o'yinlar orqali o'rgatish va qat'iy qoidalarini joriy etish taklif qilingan .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov Q. O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tasnifi
2. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tilini o'rgatish metodikasi
3. Zayniddin Sanaqullov , Bahromjon Joraboyev . Toshkent davlat pedagogika insitituti katta o'qituvchisi.